



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARIDAGI IQTISODIY MUNOSABATLAR

Saparov Elmurod Donabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: elmurod_saparov@inbox.ru

Orcid: <https://orcid.org/0000-0003-2938-1145>

Annotatsiya: Davlatning mavjud funktsiya vazifalarini xususiy sektorga o'tkazish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi amaliyoti davlat-xususiy sheriklik mamlakat xududida rivojlanib kelayotgan yo'nalishlardan hisoblanadi. Davlatlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga tashqi imkoniyatlardan ham keng foydalanish tavsiya qilinadi. Xorijiy olimlarning ta'kidlashlari bo'yicha ijtimoiy sohadagi mavjud muammolarni bartaraf qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabini maksimal darajada qanoatlantirishda davlat-xususiy sheriklikning rivojlantirishni nazariy asoslari, mahallay va xorijiy olimlarning nazariy va empirik qarashlari hamda respublikadagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalarning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy soha, davlat subsidiyasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Abstract: The gradual transfer of specific governmental functions to the private sector and the introduction of new investment-financing practices have significantly accelerated the development of public-private partnership (PPP) mechanisms. Ensuring sustainable economic growth increasingly requires the efficient use of domestic resources together with the attraction of external investment opportunities. International research highlights that PPP plays an essential role in addressing structural challenges in the social sector and improving the population's access to quality social services. This study analyzes the theoretical foundations and empirical perspectives of local and foreign scholars, as well as evaluates the outcomes of PPP projects implemented in Uzbekistan, emphasizing their effectiveness in the social sphere.

Keywords: investment, public-private partnership, social sector, state subsidy, preschool education institution.

Абстрактный: Передача отдельных государственных функций частному сектору, а также внедрение новых механизмов финансирования инвестиционных проектов способствуют активному развитию государственно-частного партнёрства (ГЧП). Для обеспечения устойчивого экономического роста государствам рекомендуется эффективно использовать внутренние ресурсы наряду с привлечением внешнего инвестиционного потенциала. Зарубежные исследования свидетельствуют, что теоретические основы ГЧП и практический опыт реализации проектов играют ключевую роль в решении существующих социальных проблем и удовлетворении потребности населения в качественных социальных услугах. В работе анализируются теоретические и эмпирические положения отечественных и зарубежных учёных, а также оцениваются результаты реализации проектов ГЧП в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: инвестиции, государственно-частное партнёрство, социальная сфера, государственная субсидия, дошкольная образовательная организация.

Kirish (Introduction/Введение).

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi davlat olib borayotgan boshqaruv talablariga muvofiq bo'lib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va shu asosda tarmoqlar, hududlarni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jamiyatdagi gumanitar muammolarni hal etish jumladan ishsizlik muammosini bartaraf etishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish, aholining turli qatlamlari huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish albatta davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilishi ayni muddao hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida murakkab jarayonlarni va davlatimiz amalga oshirgan taraqqiyot natijalarini tahlil qilib, so'ngi davrlarda "Inson qadri uchun" mafkurasi asosida aholi farovonligini yanada ko'tarish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal takomillashtirish, inson huquqlarini va manfaatlarini ta'minlash bilan birga faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilangan (PF-60, 2022).

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) amaliyotining rivojlanish bosqichlari, huquqiy-me'yoriy

asoslarining shakllanishi hamda ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan. Ilmiy izlanish jarayonida miqdoriy va sifat tahlil yondashuvlari uyg'unlashtirilgan bo'lib, DXSh loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda normativ-huquqiy hujjatlar talqinlari, xalqaro moliya institutlari hisobotlari, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ochiq ma'lumotlari asosiy manba sifatida tanlangan.

Sifat tahlili doirasida DXShning nazariy konsepsiyalari, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, hamda ilg'or xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda deduksiya, induksiya, sintez, indekslash va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. DXSh sohasidagi institutsional muammolar, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi risk taqsimoti, manfaatlar muvozanati va loyihalarning ijtimoiy ta'siri bo'yicha ilmiy farazlar shakllantirilib, ularning asoslanganligi empirik misollar orqali tekshirildi.

Miqdoriy metodlar sifatida DXSh loyihalarning sohalarda bo'yicha taqsimoti, ularning qiymati, xalqaro grantlar hajmi, tender jarayonlari statistikasi va yillik o'sish dinamikasi tahlil qilindi. Agentlikning 2020–2023 yillardagi hisobotlari asosida loyihalar soni va qiymatlari bo'yicha trendlar chiqarilib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi.

Ushbu kompleks metodologiya DXSh amaliyotining respublika ijtimoiy infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi rolini aniqlash hamda

uning rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarmoq imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

Davlat-xususiy sherikligi kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq xususiy sektor vakillarining davlat bilan hamkorlikda investisiya va infratuzilma loyihalarida, shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlardagi sheriklik munosabatlari o'rnatilishi tushuniladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi infratuzilma va xizmatlar sohasining boshqa doirasida davlat va xususiy korxonalar yoki sektorlar o'rtasidagi bir qator iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Bunday iqtisodiy munosabatlar jarayonida foydalaniladigan boshqa tushunchalar orasida xususiy sektor ishtiroki (Private Sector Participation) va xususiy lashtirish (Privatization) kabi tushunchalar ham mavjud bo'lsada, ushbu tushunchalar orasida ma'lum bir farqlar mavjuddir.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) infratuzilma va davlat hamkorligidagi tijorat tashkilotlarining ishlab chiqarishda, maishiy xizmatlar va ijtimoiy infratuzilmani tashkil qilishda, boshqarishda hamda ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda ishtirok etishlarini ifodalaydi (Boyer va Scheller, 2018).

Davlat-xususiy sheriklik modeli bugungi kunda davlat xizmatlarini ko'rsatishda jamoat infratuzilmasini tashkil etish uchun davlat xaridlarining yangi vositasi sifatida eng yangi va moslashuvchan shakl sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu davlatning ijtimoiy xarakterdagi majburiyatlari va funksiyalaridan cheklanishini ta'minlaydigan past intensivlikdagi xususiy lashtirish usuli hisoblanadi. Shuning uchun DXSH loyihalarini xususiy lashtirishning turli shakllariga nisbatan o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan xususiy lashtirish turi hisoblanadi (Erwin, 2004).

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) infratuzilma va davlat xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli shartnomaviy hamkorlik sifatida ta'riflanishi mumkin, bunda ham davlat, ham xususiy sektor umumiy maqsadlarga erishish uchun o'z risklari va imkoniyatlarini baham ko'radi. Davlat-xususiy sherikligi – bu xususiy sektor vakillari resurslarini umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan munosabat tushunchasidir. Ya'ni, davlat o'z ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor vakillari bilan manfaatlarini birlashtiradi, vakolatlarini taqsimlaydi va xar ikki taraf xuquqlari shartnoma asosida himoyalanaadi.

Sheriklik ikki tomonlama, lekin manfaat uch tomonlama yuzaga keladi. Bu manfaatlar shuni bildiradi, davlat past darajali xarajat bilan ijtimoiy muammolarni hal qilish funksiyasini bajaradi va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ladi xamda xususiy sherik davlatning talabi, imtiyozlari va mulkidan foydalangan holda, o'z kapitalini past risk ostida yangi yo'nalishni tashkil etadi va u ham o'z navbatida qo'shimcha daromad manbaini yaratadi (Delmon, 2009).

Davlat va xususiy sheriklik munosabatlari ijtimoiy majburiyatlarga va amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlarni amalga oshiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida qaraladi. Shu bilan birga, davlat investisiya siyosatiga rioya qilishda hukumatning ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rni va rolini ifodalaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Iqtisodiy nuqtai nazardan DXSHning maqsadi-tegishli davlat budjetlari hisobidan taqdim etilishi kerak bo'lgan xizmatlar va iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga xususiy investisiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish hisoblanadi (OECD, 2012).

Davlat bilan xususiy biznes hamkorligi mexanizmi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda iqtisodiy unsur hisoblanadi. Birinchidan, davlat va xususiy biznes sherikligi budjetlarni birlashtirib, moliyalashtirishning muqobil shaklini namoyon qiladi. Ikkinchidan, davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi resurs va imkoniyatlar, salohiyat birlashadi. Uchinchidan, davlat mulkidan foydalanish samaradorligi turli sohalarda yangi tajribalarni o'rgatadi (ADB, 2022).

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi;
- davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi;

- xususiy sherikni tanlashdagi raqobat va xolislik;
- kamsitishga va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik.

O'z navbatida, tajribalar natijasida davlat va xususiy sheriklik o'rtasida bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oluvchi tamoyillar shakllanadi:

- tomonlarning teng manfaatlariga ega bo'lishi. Uning mazmuni davlat-xususiy sheriklik shartnomasini imzolash huquqi barcha xususiy kompaniyalarga berilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, bunda hamkorlar ular oldida turgan maqsadga erishish shakli va usullarini tanlashda erkin harakat qilish imkoniyatidan foydalanishadi;

- shartnomalarning barqaror va ko'p funksiyaviyligi. Davlat va xususiy sherik o'rtasidagi imzolangan shartnoma qat'iy, lekin unga tegishli o'zgartirishlarni kiritish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak. Chunki odatda bunday shartnomalar uzoq muddatga imzolanaadi va bu davrda belgilangan

shartlarga tuzatishlar kiritishga olib keluvchi holatlar paydo bo'lishi mumkin;

- loyihaing ijrosi nazoratida har ikki tarafning manfaatlari tengligi. Bunda, shartnoma shartlarini bajarishga nisbatan mas'uliyat muhim omillardan biri bo'lib, xususiy korxonalar (sherik) mazkur hamkorlik loyihasidagi ishlarni to'xtatishga haqli emas. Chunki bu holat loyiha amaliyotining iste'molchisi - keng jamoatchilik manfaatlariga ziyon keltirishi mumkin. Bunday hollarda xususiy kompaniya muammoni davlat bilan tegishli muloqotlarni olib borish orqali hal etishi lozim;

- xususiy sherik tanlashda raqobat tamoyillari. Davlat bilan xususiy sheriklik shartnomasini imzolash uchun o'tkaziladigan tanlov chog'ida raqobat tamoyili namoyon bo'ladi (Patrinov va boshqalar, 2009).

Metodologiyasi. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining rivojlanish bosqichlari, normativ-meyoriy hujjatlarining o'zgarishlari tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf qilish yo'li sifatida tavsiflanadi. Mazkur magistrlik ishida tadqiqot ko'rsatkichlari miqdori va sifat ko'rsatkichlari sifatida tadqiq qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining ijtimoiy sohadagi natijalari miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Tanlab olingan ijtimoiy sohadagi davlat-xususiy sheriklik amaliyotining normativ-huquqiy bazasining shakllanishi davri tadqiqot uchun belgilab olingan davrlarni tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotimizda xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari, xorijiy davlatlarning ushbu yangi amaliyotning rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan. Bundan tashqari, analiz, sentiz, indeksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, davlat xarajatlarining tarkibiy ulushidagi DXSH uchun ajratilgan subsidiyalalar hamda DXSH loyihalarining dinamik o'zgarishlari tahlillar qilinadi.


Tahlil va natijalar (Analysis and Results, Анализ и результаты).

Respublikada davlat-xususiy sheriklik asosida malaga oshirilayotgan loyihalar ulushi o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Oxirgi ikki yilda Agentlik tomonidan DXSh loyihalarini amalga oshirish va mutaxassislarini tayyorlash, malakasini va salohiyatini oshirish bo'yicha 12,3 mln. AQSh dollar miqdorida grant mablag'lari jalb qilindi, jumladan:

1. Osiyo taraqqiyoti banki tomonidan – 6,9 mln. AQSh dollari ajratilgan;
2. Jahon banki tomonidan – 4,85 mln. AQSh dollari ajratilgan;
3. Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki – 500 ming AQSh dollari ajratgan.

Xususan, Jahon bankining Institutsional salohiyatni oshirish Loyihasini (Institutional Building Loan - IBL) amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Mazkur loyiha doirasida DXSh loyihalarini amalga oshirishda xorijiy konsultantlarni jalb qilish maqsadida Jahon banki tomonidan 5 mln. AQSh dollari teng mablag' ajratilgan. Shu bilan birga, Osiyo taraqqiyot bankining texnik ko'magi bilan xalqaro investorlar uchun amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar ro'yxati va ular haqida ma'lumot beruvchi DXSh Agentliging maxsus portaliga ulanish amalga oshirilmoqda.

Ushbu xalqaro investorlar portalini "Source" integratsiya imkoniga ega bo'lib, unda amalga oshirilayotgan loyihalar jarayonlari qulay vizualizatsiya qilinadi. 2020 yil davomida Agentlik ko'magida mazkur platforma DXSh Qonuniga moslashtirilib sahifalar rus tilidagi talqini xam joriy etildi. Hmda qator loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining loyihalari soni va summasi haqida ma'lumot.

Manba: inv.uz saytida elon qilingan xisobotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shuningdek, agentlikning 2021 yil ma'lumotlariga ko'ra jami 159 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini, jumladan energetika sohasida 1 ta, kommunal xizmatlar sohasida 1 ta, transport sohasida 1 ta, sog'liqni

saqlash sohasida 17 ta, suv xo'jaligi sohasida 97 ta, ekologiya sohasida 13 ta, ta'lim sohasida 7 ta, hunarmandchilik sanoati sohasida 13 ta, madaniyat sohasida 7 ta hamda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish va huquqni muxofaza qilish sohaslarida 1 tadan, ya'ni umumiy qiymati 1,86 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan loyihalar ustida ishlar olib borilgan.

Shundan, ijtimoiy sohalarda bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida 2021 yil davomida jami qiymati 30,96 mln AQSh dollari bo'lgan 17 ta loyiha bo'yicha DXSh bitimi imzolangan. Bundan tashqari, joriy yil davomida ta'lim sohasida umumiy qiymati 3,28 mln AQSh dollari bo'lgan 7 ta DXSh loyihalarini bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi va ushbu loyihalar bo'yicha DXSh bitimi imzolandi. Yil davomida madaniyat sohasida umumiy qiymati 4,87 mln AQSh dollari bo'lgan 7 ta DXSh loyihalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi va ushbu loyihalar bo'yicha 7 ta DXSh bitimi imzolandi. Keyingi o'rinlarda, suv xo'jaligi bo'yicha 97 ta DXSH loyihalari jami summasi 9.6 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 23 oktyabrda "Suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 557/6-sonli XDFU qaroriga asosan, respublikadagi nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish xususiy sektor boshqaruviga berish bo'yicha umumiy qiymati 18,2 mln dollardan ortiq bo'lgan 294 ta loyiha bo'yicha imzolangan DXSh to'g'risidagi bitimlar DXSh loyihalarining reestriga kiritildi.

Bundan tashqari, 2023 yil bo'yicha istiqboldagi rejalar sifatida – sog'liqni saqlash sohasida Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida dastlabki qiymati 20,1 mln dollar bo'lgan Farg'ona, Samarqand va Xorazm viloyatlarida Nurli terapiya tibbiyot markazlarini tashkil etish loyihasi bo'yicha tender jarayonlari yakunlanib tushgan takliflarni baholash ishlari amalga oshirilmogda. Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida 800 o'rinli dastlabki qiymati 306 mln dollar atrofidagi Farg'ona viloyatida ko'p tarmoqli shifoxona tashkil etish loyihasi bo'yicha loyiha konsepsiyasini tayyorlash ishlari davom etmogda.

Osiyo taraqqiyot banki ko'magida har biri 1 500 o'rindan bo'lgan dastlabki qiymati 240 mln dollar bo'lgan Andijon va Buxoro viloyatlarida poliklinika va tibbiyot markazlarini tashkil etish loyihasida dastlabki o'rganish ishlari olib borilmogda; – Ta'lim sohasida Osiyo taraqqiyot banki ko'magida dastlabki qiymati 97 mln dollar bo'lgan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 13 ta umumta'lim maktablarini DXSh asosida qurish loyihasi bo'yicha loyiha konsepsiyasi tasdiqlanib, tenderning birinchi bosqichi e'lon qilinib, takliflarni qabul qilish davom etmogda.

Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida dastlabki qiymati 75 mln dollar bo'lgan Andijon va Samarqand viloyatlarida DXSh asosida 15 ta umumta'lim maktablarini barpo etish loyihasi, Osiyo taraqqiyot banki ko'magida dastlabki qiymati 75 mln dollar bo'lgan DXSh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish loyihasi

va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida dastlabki qiymati 115 mln dollar bo'lgan oliy ta'lim muassasalari uchun talabalar turar joylarini tashkil etish loyihasi bo'yicha jalb qilingan konsultantlar tomonidan o'rganish va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish ishlari olib borilmogda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida dastlabki qiymati 50 mln dollar bo'lgan DXSh asosida 15 tagacha umumta'lim maktablarini barpo etish loyihasi bo'yicha loyiha uchun konsultantlar jalb qilindi.

Xulosa (Conclusion/Заключение).

Iqtisodiy tizimni liberallashtirish sharoitida, davlat iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kamaytirishga intilayotganda, DXSh ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. DXSh turli ijtimoiy sohadagi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy kapitalni jalb etishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

DXShning rivojlanishi davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, tartibga solish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kabi asosiy funksiyalariga e'tibor qaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, xususiy sektor ko'proq moslashuvchanlik va samaradorlik bilan sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma va an'anaviy ravishda davlat tomonidan boshqariladigan boshqa sohalardagi loyihalarni o'z zimmasiga oladi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning yangi amaliyoti sifatida e'tirof etilgan DXSH jahon tajribasida endi keng rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, DXSH loyihalari asosiy maqsadi 2 taraflarning ya'ni tadbirkor hamda hukumat qiziqishlarining mos kelishi natijasi hisoblanadi. Tadbirkorning asosiy faoliyat yo'nalishi foyda olishga qaratilgan bo'lsa, davlatning asosiy maqsadi o'zining funktsiya va vazifalarini amalga oshirish hamda budjetga tushadigan xarajatlar yukni kamaytirish hisoblanadi.

Iqtisodiy tizimni liberallashtirish sharoitida davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) takomillashtirish bo'yicha takliflarimiz quyidagilarni ta'kidlab o'tishimiz mumkin: DXSh loyihalarini amalga oshirish tartiblarini soddalashtirish va standartlashtirish tizimini amaliyotga joriy qilish. Bunda, xususiy sektorning ushbu jarayondagi aniq vazifa va yo'nalishlari belgilab berishi. Shuningdek, ushbu jarayonlarni raqamlashtirish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkoniyatlarini ta'minlash. Ushbu amaliyot o'z navbatida, nazorat qilishni soddalashtirish va kelajakdagi qaror qubul qilish jarayonlari uchun zarur bo'lgan tezkor va sifatli axborotlarni ta'minlaydi.

Aniq belgilab berilgan maqsad va vazifalar o'z navbatida DXSH loyihalari shaffofligi va hisobdorligini oshirish. Ijtimoiy soha bo'yicha DXSh amaliyotining joriy qilishdagi xarajatlarini amalga oshirishda natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy qilish hamda tadbirkorning manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: kichik tadbirkorlik sub'ektlari. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining axborotnomasi (2024 yil yanvar-dekabr oylari). T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024. 227-252 betlar.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik: kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami bandlikdagi ulushi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari. T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025. Christine Lewis & Ben Westmore. The role of the Australian financial sector in supporting a sustainable and inclusive recovery // OECD Economics Department Working Papers No.1699. Paris – 2021. 65 pages.
3. Мосолова О. В. Австралия: экономика роста // Юго-восточная Азия: актуальные проблемы развития. Том II, № 2 (51), 2021. С. 241-253.
4. Yoziyev G'. L. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat innovatsion rivojidagi salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari (Osiyo-tinch okeani mintaqasi mamlakatlari tajribasi misolida) // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. 53 bet.
5. Медведев М. Б., Трушина К. В. Австралия: анализ вектора цифровизации в сельском хозяйстве и финансах // Международный сельскохозяйственный журнал. Том 68, № 2 (404), 2025. С. 165-168.
6. Soumitra Dutta, Bruno Lanvin, Lorena Rivera Leon & Sacha Wunsch-Vincent. Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. 17th Edition. Geneva: WIPO, 2024. 323 pages.